

ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Sharipova Dilafruz Sattarovna - magistrant
dsaripova882@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Ulug'bek Hamdam hikoyalaridagi uslubiy xususiyatlari, xayolot dunyosi va haqiqat jabhalari, shuning bilan birga tasvir usuli va ijodiy mahorati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: hikoya, hayot hodisalari, epik janr, ayol obrazi, badiiy tafakkur, bosh qahramon, obraz.

Аннотация. В статье рассматриваются стилистические особенности рассказов Улугбека Хамдама, мир фантазии и реальности, а также его метод изображения и творческие способности.

Ключевые слова: повесть, жизненные события, эпический жанр, женский образ, художественное мышление, главный герой, образ.

Abstract. The article discusses the stylistic features of Ulugbek Hamdam's stories, the world of fantasy and reality, as well as his style and creative skills.

Keywords: story, life events, epic genre, female image, artistic thinking, protagonist, image.

Yozuvchilar odatda o'z ijodini hikoya qoralash bilan boshlaydi, chunki hikoya janri yozuvchiga ko'nikma, malaka oshirish, ijodkor sifatida shakllanish, muayyan bir yo'nalish va uslubga tushib olishi uchun qulaydir. Nasrdagi izlanish va tajribalar samarasi bugungi kunda hikoyaning hajmi, mavzu xilma-xilligi, badiiy-estetik tasvir vositalarini kengaytirdi. Tasvirning hikoyaga ko'chishi, ichki ruhiy tahlilning kuchayishi, hozirgi murakkab fan va texnologiyalar zamonida inson fikr doirasi, ichki kechinmalari chigallashib borayotgani murakkab va o'ylantiradigan hikoyalar yozishga omil bo'ladi. Aynan shunday hikoyalarni Ulug'bek Hamdam ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining ba'zi asarlarida modirnistik yelementlar ko'zga tashlansada (masalan: Yolg'izlik qissasida), ijodiga xos bo'lgan umumiy xususiyat, milliy va an'anaviy uslubda qalam tebratishidir. Asarlarida turli voqealar tasviri o'z aksini ko'rsatadi.

Adabiyotshunos Tal'at Solihov "Har bitta badiiy asar dastlab milliydir, Milliy bo'lmagan adabiyot adabiyot emas"- deb takidlaydi. Hech bir hikoya o'z-o'zidan dunyoga kelmaydi. Bu har bir ijodkorning botiniy va zohiriy dunyosida turli fikr, g'oyalar ta'sirida yuzaga keladi.

Ulug'bek Hamdam ko'plab hikoyalari rus tiliga tarjima qilingan, "Tosh" hikoyasi Amerikada e'tirof etilgan. Ulug'bek Hamdam yangilik va yangilanishlarga boy, ilmiy dunyosi va o'z yozish uslubiga ega.

“Tosh”, “Ko‘ngildagi daryo”, “Unutilgan nay navosi”, “Lola”, “So‘z”, “Bir payola suv”, “Musulmon” kabi hikoyalar kitobxonni o‘ylashga majbur etadigan falsafiy asarlardir. “So‘z” hikoyasi uslub jihatidan boshqa hikoyalardan farq qiladi. Inson ruhining evrilishlari, ko‘ngil nozikliklari ifodalanadi. Hikoyaning boshlanishida er va xotinning iliq munosabatlari yoritilgandek ko‘rinadi, voqealar tasviri kutilmaganda sodir bo‘lib, o‘quvchini hayratga soladi va ruhiy zarba beradi. Er va xotin o‘rtasidagi ko‘p yillik iliq munosabatlar birgina so‘z orqali oila deb atalmish qo‘rg‘onning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Turmush o‘rtog‘ining ahvolidan habari yo‘q ayol karaxt bo‘lib qolgan eriga “oshga qaramaysizmi tagiga olib ketadi-ku”. “Sen oshni aytasan, buyoqda mening hayotim tagiga olib ketmoqchi-ku!. Osh tagiga olgan bo‘lsa olgandir, uni qaytadan boshlash mumkin, lekin umrnichi? Agar u tagiga olsa, yangitdan boshlash mumkinmi?” – degisi keldi. Bu hikoyada ma‘naviy qashshoq bo‘lgan ayol obrazi ifodalanadi. Ko‘p yillardan beri bilgan insonni ham anglab tushunish, uning asli kim-u ko‘nglida nima borligini bilish murakkab hodisaligini tasvirlaydi. Azal-azaldan avlod shajarasini bamisoli bir daraxtga o‘xshatishadi, shox-shabbalarni esa uning avlodlari deb kelishgan. “Haykallar oroli” hikoyasida Odam ato va Moma havo kabi ikki insondan bunyod bo‘lgan avlodlar taqdiri aks ettirilgan. Birinchi avlod ahil, inoq umurguzaronlik qilib, ikkinchi avlodga kelib mehr, oqibat deb atalmish, insonning ijobiy xislatlari o‘rnini yomon illatlar egallab bir-biri bilan dushman bo‘lish darajasiga yetadi.

Ota-bobolarimizdan qolgan, “Mol-dunyo ketsa-ketsin, obro‘ ketmasin”, xalq maqoli voqeaga mos keladi. Aynan shu voqealar tasvirini “Namatak” mini-romanida ham ko‘rishimiz mumkin. Ikki hikoyada ham ko‘ngildagi ezgulik va adovat o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlangan. Yozuvchi hozirgi kunda ro‘y berayotgan, dilni xira qiladigan voqea hodisalarni, insonlar qalbida kechgan ichki kechinmalarni kryeativ yondashgan holda kitobxonga yetkazishga urinadi.

Falsafiy jarayonlar kuzatiladigan hikoyalardan biri “Lola” hikoyasidir. Bunda ham inson botinidagi tuyg‘ular: yaxshilik, ezgulik, nafs tushunchalari o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘rasiz. Undagi voqealar silsilasi inson ichki dunyosida o‘z-o‘zi bilan kurashayotgan xislatlarni anglashga xizmat qiladi. Yozuvchi ijodiga oid namunalarida keltirilgan mavzular bir-biridan keskin farq qiladi.

Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv”, “Ko‘nglimdagi daryo”, “Unutilgan nay navosi” hikoyalarda ko‘proq erkinlik, ozodlik tuyg‘usini va poklik ramzini aks ettiruvchi “suv” obrazini ko‘p uchratasiz. “Bir piyola suv” hikoyasida yuk tashuvchi obrazi orqali insonning yashab o‘tadigan umri tasvirlanadi. Bosh qahramon unga topshirilgan omonatni olib borar ekan, yo‘lda chanqoq bosish uchun suv ichgani karvonsaroyga to‘xtaydi. Ichgan bir piyola suvi haqini to‘lab, manziliga davom etish uchun chiqqanda oradan ko‘p yillar o‘tib ketganini sezib qoladi. Yigit yo‘l bo‘yi

qidirgan suvini o‘zi manzilga olib ketayotgan omonat meshdaligini ko‘radi. Bu hikoya ramziy obrazlarga boy. Jumladan, suv(poklik), karvonsaroy(dunyo, umr), sahro (mashaqqat) kabi. Insonning yaratilishidagi azaliy va abadiy haqiqatlarga yozuvchi o‘zgacha nigoh bilan yondashadi. Bani bashar yaratilibdiki, uning zimmasidagi asosiy vazifalardan biri pok yashashdir. Inson biror narsani chin dildan istasa ixlos qilib so‘rasa u albatta amalga oshadi. O‘ngda, tushda goh hayolda ham.

Ulug‘bek hamdamning “Ko‘nglimdagi daryo” hikoyasida qahramonimiz qishloq odami edi, tabiatni sevuvchi, daryo-suvlarga ko‘ngil bergan shaxs bo‘lganligi shahar hayotiga ko‘nika olmadi, har kun takrorlanadigan bir xil ish joniga tekkan edi. Botinida yashayotgan yoshlik, beg‘amlilik davrlari asta sekin yuzga chiqa boshladi. Har bir shaxs bu hikoyadagi kabi hayot zarvaraqlarida ro‘y berayotgan turli voqea, hodisa, yumushlarimizdan bir muddat bo‘lsada yoshligiga qaytishni yoki nimadir ro‘y berib qisqa muddatga bo‘lsa ham bir xil hayotdan yiroqlashishni istaymiz .

Bizning bu istaklarimizni Allohning bergan ne‘matlariga noshukurlik deb tushunishingiz mumkin. Bu albatta noto‘g‘ri xulosa

Ulug‘bek Hamdamning yuqoridagi hikoyasiga o‘xshash yana biri “Unutilgan nay navosi” hikoyasidir bunda Vatanning muqaddas ekanligini takidlash bilan birga qishloq hayoti bilan bog‘liq xotiralar aks etirilgan.

Alanga va nur bir-biri bilan qanchalik uyg‘unlashgan bo‘lsa, hayot bilan faoliyat ham bir-biriga shu qadar mustahkam bog‘langan. Nimaiki nur sochsa, shubhasiz, yoritadi, nimaiki yashayotgan ekan, so‘zsiz harakatda bo‘ladi. Hayot kabi ijodiy jarayon ham shunchalik poyonsiz, betakror va ko‘p qirraliki, unda har bir yozuvchining ehtiyojiga, iqtidoriga yarasha o‘rin hamma vaqt topiladi. Ijod mahsuli bo‘lgan badiiy adabiyot fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to‘xtashni bilmaydigan, borgan sari nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan yog‘du. Zero, badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

Jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda ham o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, obrazlar tizimini to‘g‘ri tushunmoq, tili, jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo‘ladi. “Davr va adabiyot g‘oyat murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o‘zgarib turishi bo‘lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o‘zi yaratilgan zamonga qaraganda ko‘proq yashashga intilishi, barqarorroq bo‘lishga urinishidir. Zamonda turib zamonnini ko‘rish qiyin, uning biror jihatini baholash yanada mushkul. Shuning uchun istiqloq davri adabiyoti, unga xos belgilar haqida gapirish g‘oyat mas‘uliyatlidir.”

Bugungi kunda o‘zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug‘bek Hamdam o‘zining chuqur sarmazmun roman va hikoyalari bilan xalq og‘ziga tushgan yozuvchilardan biridir. Uning “Muvozanat”, “Isyon va Itoat”, “Sabo va Samandar” kabi romanlari, “Uzoqdagi Dilnura” qissa va hikoyalar to‘plami XX asr o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga

ega. Shuningdek, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul” va “Seni kutdim” she’riy to’plamlari, “Badiiy tafakkur tadriji”, “Yangilanish ehtiyoji”, “Yangi o’zbek she’riyati” nomli monografiyalari ham nashr etilgan.

Ulug`bek Hamdam zamonaviy o`zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko`p o`girilayotgan va O`zbekistondan tashqarida e`tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biridir. Uning “Isyon va itoat” romani, “Yolg`izlik” qissasi, o`nga yaqin hikoyasi va she`rlari ruschaga tarjima qilindi. Ijodkorning “Tosh” degan hikoyasi va bir qancha she`rlari ingliz tiliga o`girildi. “Muvozanat” romani va “Tosh” hikoyasi Amerikada e`tirof etildi.

Ona yurtidan uzoqda hayot kechirgan shaxs qismati, uning mashaqatli harakatlari evaziga orttirgan boyliklari-yu, mol-mulki tug`ilib o`sgan yurti oldida arzimas bir holat ekanligini hikoya davomida anglaysiz. Psixologik jihatdan qaraydigan bo`lsak o`tgan kunni unutishga ming bor urunib harakat qilganimiz bilan yoki tashqi muhit bizni chalg`itsada botiniy dunyomizning tub tubida yashayotgan xotiralar o`chmaydi saqlanadi. Shundayin har birimiz o`z tarixiy xotiramizga egamiz. Qahramonimiz ham o`tmishidan tasirlanib shu darajaga yani katta yutuqlarga erishgandir, har bir ishning o`z asosi bor. Shu birgina kuy Alisherni yoshligi o`tgan, butun qavm-u qarindoshlari bor qishlog`i tobora o`ziga tortar o`zi istamagan holda unga intilardi, qumsardi va ona yurtini sog`inganini anglar edi. U qishlog`iga bordi lek u yerda o`zga insonlar, o`zga muhitni ko`rdi, uyiga qaytganda hali hamon uni tark etmagan nay navosi o`z yurtiga borgani bilan o`tgan damlarni ota onasiyu yoshligini qaytara olmasligini tushunib yetdi. Bu hikoya ham yoshlik hotiralar bilan bog`liq voqea edi.

Ulug`bek Hamdamning ko`plab hikoyalarini o`qiganingizda yangi avlod qalbida kechayotgan yangilanishlar va sermazmun ijod qilishini his etasiz. Yoshlik damlarini ko`p eslashini, sog`inishi, bir muddat bo`lsada yoshligiga qaytib barcha dunyo ishlarini unutgisi kelganini sezish mumkin. Albatta bu hodisa har birimizni ong-u shurimizda yashaydi, yoshligini sog`inmagan inson bo`lmasa kerak, bu hodisa ko`plab son sanoqsiz yozuvchilarimiz ijodida ko`rishimiz mumkin. Adabiyotshunos, munaqqid Bahodir Karim nasr haqida shunday so`z yuritadi, “Badiiy asarda inson vujudiga sig`mayotgan ruhiy po`rtanalar, toshqinlikni, ko`ngilda tug`ulgan ezgu niyatlarni bayon etish uchun imkoniyat ko`proq bo`ladi”. Yozuvchi hayotdan bir turtki oladida ana shu turtki asosida muammoni yechib yuboradigan hikoya yoki biror boshqa ijod mahsulini yaratadi.

Bir necha betli yozgan hikoyasi orqali olam-olam ma`no anglatmoqchi bo`ladi, bizga shu hikoyacha oddiy bir voqea yo hodisa bo`lib tuyulishi mumun, lekin hikoya mazmuniga chuqurroq kirib boradigan bo`lsak butunlay bir boshqa ma`noni anglashimiz mumkin hikoyalaridan har kim turlicha hulosalarga kelishi, eng muhumi

ong-u shurimizga ijobiy ta'sir etishi yoki masalaning mohiyatini yozuvchi nima demoqchiligini anglashimiz mumkin.

Ulug`bek Hamdam ijodida milliylikdan umuminsoniylik sari o`sib chiqqan asarlar borki, ular chet el adabiyotida ham munosib baholandi. Yozuvchi adabiy an`analarning munosib vorisi sifatida davom ettirish barobarida shaklan ham mazmunan yangilanishlar yo`lida urinishlarni amalga oshirdiki, adabiy tanqidchilikning munosabatiga tayangan holda ularni muvaffaqiyatli chiqdi, deya ayta olamiz. Ulug`bek Hamdam "Muvozanat" romani bilan XX asr o`zbek adabiyotida an`anaviylik bilan ham yangi badiiy-estetik tafakkurni ifodalash mumkinligini to`la isbotladi. Ayniqsa, asardagi Amir obrazi o`zbek adabiyotiga butunlay yangi timsol bo`lib kirib keldi. Uning vositasida insonni kashf etishda adabiyotning ochilmagan qirralari, muammolari borligi ayon bo`ldi. Asardan shunday xulosaga kelish mumkinki, butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo`lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham ayni muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti hayotda, demak, uning a`zolari orasida har xil kutilmagan o`zgarishlar, hatto izdan chiqishlar boshlanadi. Adibning nafaqat romanlari, balki qissa va hikoyalarini o`qiganimizda ham asar qahramonlari va davr ruhiyatini haqqoniy qirralarda tasvirlab, yozuvchilik mahoratini to`liq namoyon etganligini ko`ramiz. Ulug`bek Hamdam ijodini chuqur ilmiy tadqiq etish adabiyotshunoslik ilmi uchun yangi ma'lumotlar beradi. Demak, bu boradagi izlanishlarni ko`paytirish foydadan holi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hamdam U. Vatan haqida qo'shiq –Toshkent. Akademnashr.: 2019.
2. Rahimova L. Badiiy konflikt talqini// Yoshlik, 2014, 1-son.
3. Rahmat R. "Vatan haqida qo'shiq"ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N16 (187).
4. Sodiq S. Isyonning hududi bormi... itoatning-chi?// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2004-yil, 12-noyabr.
5. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim?// O'zbek tili va adabiyoti. - 2001.- №6. - S. 8-12.
6. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. –T., 2006..
7. Sabirdinov A. Ma'naviyat va ma'rifat chashmalari –Toshkent. Akademnashr.: 2016.
8. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий лқини.ф.ф.д. дисс.автореферати, –Т., 2010.